

## **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablarda KIMYO FANI METODIKASI.**

**Supiyeva Norgul Ortikovna**

Xorazm viloyati Xiva tumani 37-IDUM Urganch Davlat Universiteti Kimyo fani o'qituvchisi.

**Annatatsiya:**O'quvchilarda kimyo faniga bo'lган qiziqish va mehr va predmetga mas'uliyatli munosabat uyg'otish, kimyo fanining hozirgi davrdagi roli va o'rni haqida to'g'ri tasavvur shakllantirish haqida.

**Kalit so'zlar:**Ko'nikmalarini tekshirish, o'zlashtirish saviyasi, pedagogik jarayon.

**Kirish:**Umumiy o'rta ta'lismaktablaridagi kimyo ta'limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida ta'lim- tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator xulosalar asosida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi taraqqiyot va kelgusidagi talablar darajasiga ko'tarishga, uni takomillashtirishga jiddiy e'tibor berish zarurligi ta'lim- tarbiyaning uzlusizligini ta'minlashdan kelib chiqib, «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi. Shu munosabat bilan barcha o'quv predmetlari qatori kimyo ta'limi oldiga ham aniq vazifalar qo'yildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq:

1. Umumiy o'rta ta'lismaktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasini qayta ishlab chiqish;
2. Umumiy o'rta ta'lismaktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, uning standartini ishlab chiqish taqozo qilinadi.

Kimyo ta'limi standarti kimyo o'quv predmetining majburiy mazmunini belgilab beradi.

**Asosiy qism:**Umumiy o'rta ta'lismaktablarining kimyo ta'limi standarti, kimyo ta'limi tizimidagi barcha komponentlarni: ta'limning mazmuni, maqsadi, ta'limning Kimyo ta'limi konsepsiyasiga muvofiq kimyo ta'limining yo'nnalishi va maqsadi yosh avlodning kimyo fani asoslarini chuqur egallashi, o'quvchilarning siyosiy - g'oyaviy, estetik, ekologik tarbiyasi, tabiatga va jamiyatga bo'lган ijobiy munosabat, qadimgi yashab ijod etib o'tgan buyuk mutafakkirlar, keyingi yillarda olimlarimizning kimyo sohasidagi erishgan yutuqlariga oid o'quv materiallari bilan tanishtirib borish orqali vatanga bo'lган e'tiqodni shakllantirish, kasbga yunaltirish ko'zda tutiladi. Kimyo ta'limi standarti-kimyo o'qitishda o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar, shuningdek o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi bilim va amaliy faoliyatları darajasi me'yorini belgilaydigan mezon bo'lib hisoblanadi.

Kimyo ta'limi standarti – umumiy o'rta ta'lismaktablari uchun tuziladigan kimyo ta'limi dasturi va o'quv materiallarining hajmini belgilab beruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Kimyo ta'limi standarti – kimyo ta'limida o'qituvchilarning davlat va jamiyat oldidagi vazifalari, burchi va javobgarligini qaydarajada his qilishlari mezoni bo'lib ham hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lismaktablarining kimyo ta'limi standarti-kimyo o'quv predmetidan o'quvchilarga beriladigan bilimlar miqdori, o'quvchilar egallaydigan bilim, hosil qiladigan amaliy ko'nikma va malakalar hajmini ko'rsatuvchi me'yor bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo ta'limi negizini belgilovchi ko'rsatkichlar o'quvchilarning kimyo ta'limidan tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasidan iborat bo'lган hujjat tariqasida tasdiqlanadi va xizmat qiladi.

**Xulosa:**Kimyo darslarida o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholashda test sinovlari muhim o'rinn tutadi. O'quvchilardan kimyoviy testlarni olishda ularning o'zlashtirish

darajasiga qarab, test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Test topshiriqlarida nazariy savollar bilan birga kimyoviy masalalardan foydalanish yaxshi samara beradi, chunki o'quvchilar bunday masalalarni yechayotganda o'zlarining nazariy bilimlariga tayanib, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradilar. Guruhdag'i har bir o'quvchining bilim va ko'nikmalariga qarab test materiallarini tuzish ularning o'zlashtirish darajasining yanada yaxshilanishiga olib keladi. O'zlashtirish saviyasi yaxshiroq bo'lgan o'quvchilarning test topshiriqlariga nisbatan murakkabroq masalalardan kiritish bilan ularning bilim saviyasini yanada oshirish mumkin. O'zlashtirish saviyasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga nisbatan engilroq masalalr berib, keyinchalik ular e'tiborini ancha qiyinroq masalalarni yechishga qaratish mumkin. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun o'tilgan mavzulardagi asosiy kimyoviy tushunchalarni o'zida mujassam etuvchi yengil masalalar berib, ularni masalalarni yechish usullarini o'rganishga jalb qilish kerak.

**Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 1999, 3-sod
2. I.R. Asqarov. Organik birikmalar nomenklaturasi va izomeriyasi.- T.: O'qituvchi, 1995.
2. I.R. Asqarov., K. G'ofurov., va boshqalar. Kimyodan test. T.: O'qituvchi, 1997.
3. A.G. Muftaxov. Organik kimyodan olimpiada masalalari va ularning yechimlari. O'rta umumta'lim maktablari uchun qo'llanma.- T.: O'qituvchi, 1997.
5. I.R. Asqarov., va boshqalar. Martabda kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T.: O'qituvchi, 1992.
6. T. Gulboyev. Ta'lim jarayonining tayanch bilimlari. T.: Fan, 1996.